



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

IQTISODIYOT TALABALARINING INGLIZ TILIDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

G'ulomova Begoyim Elmurod qizi

Namangan davlat chet tillari instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali kasbiy muloqot, nutqiy faollik va terminologik savodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, iqtisodiyot talabalari, ingliz tili, sun'iy intellekt, baholash mezonlari.

КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Гуломова Бегойим Элмурод кизи

Наманганский государственный институт иностранных языков, базовый докторант

Аннотация

В статье анализируются критерии и показатели оценки коммуникативной компетенции студентов экономического направления на английском языке. Также рассматриваются возможности развития профессионального общения, речевой активности и терминологической грамотности посредством использования технологий искусственного интеллекта в процессе обучения.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, студенты экономического направления, английский язык, искусственный интеллект, критерии оценки.

CRITERIA AND INDICATORS FOR ASSESSING THE ENGLISH COMMUNICATIVE COMPETENCE OF ECONOMICS STUDENTS

G'ulomova Begoyim Elmurod qizi

Namangan State Institute of Foreign Languages, Doctoral Researcher

Abstract

This article analyzes the criteria and indicators for assessing the English communicative competence of economics students. It also highlights the possibilities of developing professional communication, speech activity and terminological literacy through the use of artificial intelligence technologies in the learning process.

Keywords: communicative competence, economics students, English language, artificial intelligence, assessment criteria.

Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida nafaqat nazariy bilimga ega, balki kasbiy faoliyatda xorijiy tilda samarali muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. Ayniqsa, iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy kasbiy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki iqtisodiyot sohasi xalqaro hamkorlik, biznes muzokaralari, moliyaviy tahlil, marketing, menejment, investitsiyalar va xalqaro savdo kabi jarayonlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonlarda ingliz tili asosiy kommunikativ vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o'rganish faqat grammatik qoidalarni bilish yoki umumiy lug'at boyligini oshirish bilan cheklanmaydi. Ular kasbiy vaziyatlarda o'z fikrini aniq bayon eta olish, iqtisodiy terminlardan to'g'ri foydalanish, biznes yozishmalarini yuritish, taqdimotlar qilish, muzokaralarda qatnashish hamda iqtisodiy muammolar yuzasidan mantiqiy fikr bildirish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur. Shu sababli ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyani baholashda faqat til bilimlarini emas, balki talabaning real kasbiy muloqotdagi amaliy ko'nikmalarini ham aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ kompetensiyani baholash jarayoni aniq mezonlar va ko'rsatkichlarga tayanishi

lozim. Chunki baholash mezonlari talabaniq qaysi jihatlari tekshirilayotganini belgilab beradi, ko'rsatkichlar esa ushbu kompetensiyaniq amaliy namoyon bo'lish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Iqtisodiyot talabalari misolida bunday mezonlar lingvistik, kasbiy-kommunikativ, diskursiv, strategik va yozma muloqot kompetensiyalarini qamrab olishi mumkin. Mazkur mezonlar asosida talabalar nutqining aniqligi, iqtisodiy terminlardan foydalanish darajasi, muloqot vaziyatiga mos javob bera olishi, fikrni izchil ifodalashi hamda yozma va og'zaki kasbiy muloqotdagi faolliq baholanadi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarining kirib kelishi kommunikativ kompetensiyani baholash imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Xususan, sun'iy intellektga asoslangan platformalar talabalar nutqidagi grammatik, leksik va uslubiy xatolarni aniqlash, yozma ishlarni tahlil qilish, talaffuz va ravonlik bo'yicha fikr-mulohazalar berish, shuningdek, individual o'quv ehtiyoqlarini aniqlashda yordam berishi mumkin. Biroq bunday texnologiyalar baholash jarayonida yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi, yakuniy metodik xulosa esa o'qituvchining pedagogik kuzatuv va kasbiy baholash mezonlari asosida shakllantirilishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash dolzarb ilmiy-metodik masala hisoblanadi. Mazkur maqolada iqtisodiyot talabalar uchun ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyaniq tarkibiy jihatlari, uni baholashga xizmat qiluvchi asosiy mezonlar, ko'rsatkichlar hamda baholash darajalarini belgilash masalalari yoritiladi. Shuningdek, baholash jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ham tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi til ta'limida talabaniq faqat grammatik bilimini emas, balki til vositalaridan real muloqot sharoitida maqsadga muvofiq foydalana olish qobiliyatini ifodalaydi. D. Hymes ushbu tushunchani tilni ijtimoiy vaziyat, suhbatdosh, maqsad va nutq sharoitiga mos holda qo'llay olish bilan izohlaydi [1:269–293]. Bu qarash til o'rgatish jarayonida grammatik aniqlik bilan birga kommunikativ maqsad, kontekst va ijtimoiy moslikni ham baholash zarurligini asoslaydi.

Kommunikativ kompetensiya nazariyasi keyinchalik M. Canale va M. Swain tomonidan yanada tizimlashtirilgan. Ular kommunikativ kompetensiyani grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar birligi sifatida talqin qilganlar [2:1–47]. Grammatik kompetensiya til birliklarini to'g'ri qo'llashni, sotsiolingvistik kompetensiya nutqni vaziyatga moslashtirishni, diskursiv kompetensiya fikrlarni izchil va bog'liq bayon etishni, strategik kompetensiya esa muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf eta olishni anglatadi. Shu jihatdan, iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholashda faqat grammatik xatolarni aniqlash yetarli emas; ularniq kasbiy muloqotda fikr bildirish, savol berish, javob qaytarish va muloqotni davom ettirish ko'nikmalari ham hisobga olinishi lozim.

Bachman kommunikativ til qobiliyatini baholashda til kompetensiyasi, strategik kompetensiya va psixofiziologik mexanizmlar o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [3:84–107]. Bu yondashuv baholash jarayonida talabaniq til bilimlari bilan birga, undan amaliy vaziyatlarda foydalana olish darajasini ham aniqlashga imkon beradi. Ayniqsa, iqtisodiyot talabalar uchun ingliz tilida iqtisodiy ma'lumotni tushuntirish, jadval yoki grafikni sharhlash, biznes taklifni asoslash, muzokarada o'z pozitsiyasini himoya qilish kabi vazifalar kommunikativ kompetensiyaniq amaliy ko'rinishlari sifatida baholanishi mumkin.

Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili — ESP yondashuvi ham mazkur masalaniq muhim nazariy asoslaridan biridir. T. Dudley-Evans va M. St John ESP ta'limida o'quv mazmuni talabalariniq kasbiy ehtiyoqlari, mutaxassislik sohasi va real kommunikativ vazifalariga mos ravishda shakllanishi kerakligini ta'kidlaydi [4:4–5]. Demak, iqtisodiyot talabalariniq ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholashda umumiy mavzulardagi nutq emas, balki iqtisodiy jarayonlar, biznes muloqoti, moliyaviy tahlil, marketing va menejmentga oid kommunikativ vazifalar asosiy o'rin tutishi kerak.

CEFR hujjatlarida til o'rganuvchining kommunikativ faoliyati tinglab tushunish, o'qish, og'zaki muloqot, yozma nutq va interaktiv muloqot orqali baholanishi ko'rsatiladi [5:30–36]. Ushbu yondashuv iqtisodiyot talabalariniq ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholashda ko'p komponentli mezonlar tizimini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bunda talabaniq iqtisodiy terminlardan foydalanishi, nutqning grammatik va leksik aniqligi, fikrning izchilligi, kasbiy vaziyatga mos javob bera olishi hamda yozma va og'zaki muloqotda faol ishtirok etishi asosiy ko'rsatkichlar sifatida belgilanadi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan baholash natijasi talabaniq faqat nimani bilishini emas, balki bilganlarini amaliy faoliyatda qanday qo'llay olishini aniqlashi kerak. Shu

sababli iqtisodiyot yoʻnalishi talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholashda *role-play, presentation, case study, business correspondence, report writing va professional dialogue* kabi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday topshiriqlar talabani ingliz tilini kasbiy kommunikatsiya vositasi sifatida qoʻllay olish darajasini aniqroq aniqlashga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Iqtisodiyot taʼlim yoʻnalishi talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholashda aniq mezonlarga asosanib, maxsus rubrika orqali baholash muhim metodik ahamiyatga ega. Chunki rubrika talabani nutqiy faoliyatini umumiy taassurot asosida emas, balki aniq mezonlar va koʻrsatkichlar asosida baholash imkonini beradi. Kommunikativ kompetensiyani baholashda nutq mazmuni, muloqotga kirishish darajasi, til vositalaridan foydalanish, grammatik va fonetik aniqlik hamda vaziyatga mos kommunikativ strategiyalar asosiy baholash mezonlari sifatida qaraladi. Ushbu mezonlar kommunikativ kompetensiyani lingvistik, diskursiv, sotsiolingvistik va strategik tarkibiy qismlarini qamrab oladi [2:81–90].

Mazkur rubrikada birinchi mezon sifatida nutq mazmuni va fikrni ifodalash darajasi belgilanadi. Bu mezon talabani iqtisodiy mavzuda oʻz fikrini aniq, mantiqiy va mazmunli bayon eta olishini aniqlashga xizmat qiladi. Iqtisodiyot yoʻnalishi talabalarini uchun fikrni toʻliq ifodalash, mavzuga mos dalillar keltirish, iqtisodiy hodisa yoki jarayonni tushuntira olish muhim koʻrsatkich hisoblanadi. Shu sababli baholashda talabani javobi faqat grammatik toʻgʻriligi bilan emas, balki mazmunning aniqligi, dalillarning asoslanganligi va fikrning mavzuga mosligi bilan ham belgilanadi [5:130–135].

Ikkinchi mezon muloqotga kirishish va interaktivlik bilan bogʻliq boʻlib, u talabani suhbatda faol ishtirok etishi, savol berishi, javobni kengaytirishi hamda suhbatdosh fikrini tinglay olishini baholaydi. Kommunikativ kompetensiya real muloqot jarayonida shakllanadi va namoyon boʻladi. Shuning uchun iqtisodiyot talabalarining ingliz tilidagi kompetensiyasini baholashda ularning *business dialogue, negotiation, presentation discussion* kabi kasbiy vaziyatlarda muloqotni davom ettira olishi muhim ahamiyatga ega [4:4–5].

Uchinchi mezon til vositalaridan foydalanish boʻlib, bunda talabani mavzuga mos soʻz va iboralarni, xususan, iqtisodiy terminlarni toʻgʻri qoʻllay olishi baholanadi. Iqtisodiyot yoʻnalishi talabalarini uchun umumiy ingliz tili leksikasidan tashqari, *market, demand, supply, investment, inflation, income, expenditure, profit, loss* kabi kasbiy terminlardan oʻrinli foydalanish kommunikativ kompetensiyani muhim koʻrsatkichi sanaladi. Bu mezon talabani kasbiy muloqotda oʻz fikrini aniq va sohaga mos tarzda ifodalash imkoniyatini koʻrsatadi [2:2–27].

Toʻrtinchi mezon grammatik va fonetik aniqlikdir. Bu mezon talabani grammatik jihatdan toʻgʻri gap tuzishi, talaffuzining tushunarli boʻlishi va nutq ravonligini aniqlashga qaratiladi. Kommunikativ yondashuvda grammatik xatolarning mavjudligi baholashda mutlaq salbiy holat sifatida emas, balki ular muloqot mazmuniga qanchalik taʼsir qilishi nuqtayi nazaridan baholanadi. Demak, talabani nutqi ayrim xatolarga ega boʻlsa ham, asosiy mazmun tushunarli boʻlsa, bu kommunikativ maqsadning qisman amalga oshganini koʻrsatadi [2:25–31].

Beshinchi mezon vaziyatga moslik va kommunikativ strategiyalardan foydalanish hisoblanadi. Bu mezon talabani nutq vaziyatiga mos uslub tanlashi, tushunmovchilik yuzaga kelganda qayta soʻrashi, aniqlashtirishi yoki fikrini boshqa soʻzlar bilan izohlashi orqali namoyon boʻladi. Ayniqsa, iqtisodiy mavzudagi kasbiy muloqotda talaba oʻz fikrini mos ohangda ifodalashi, suhbat jarayonida yuzaga kelgan kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf eta olishi zarur. Strategik kompetensiya talabani til bilimlari yetarli boʻlmagan holatda ham muloqotni davom ettira olish qobiliyatini koʻrsatadi [6:18–25].

Umuman olganda, taklif etilayotgan rubrika iqtisodiyot talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini kompleks baholashga xizmat qiladi. Unda 4 ball yuqori darajani, 3 ball yetarli darajani, 2 ball qoniqarli darajani, 1 ball esa past darajani ifodalaydi. Mazkur baholash tizimi orqali talabani nafaqat til bilimlari, balki ingliz tilidan iqtisodiy va kasbiy vaziyatlarda amaliy foydalana olish darajasi ham aniqlanadi. Shundan kelib chiqib, quyidagi jadvalda iqtisodiyot yoʻnalishi talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholash rubrikasi keltiriladi.

1-jadval.

Kommunikativ kompetensiyani baholash rubrikasi

Mezon	4	3	2	1
1. Nutq mazmuni va fikrni ifodalash	Fikrini aniq, mantiqiy va toʻliq ifodalaydi.	Fikrini asosan tushunarli ifodalaydi, lekin	Fikr bildiradi, ammo gaplari qisqa, yuzaki yoki takroriy	Fikrini ifodalashda qiynaladi,

	Mavzuga mos dalillar keltiradi.	ayrim joylarda aniqlik yetishmaydi.	bo'ladi.	javoblari juda qisqa yoki mavzudan chetga chiqadi.
2. Muloqotga kirishish va interaktivlik	Suhbatni faol davom ettiradi, savol beradi, javobni kengaytiradi, sherigini tinglaydi.	Suhbatda ishtirok etadi, savollarga javob beradi, lekin tashabbus kamroq.	Asosan faqat berilgan savollarga javob beradi, suhbatni davom ettirishda qiynaladi.	Muloqotda passiv, savol-javobga to'liq kirisha olmaydi.
3. Til vositalaridan foydalanish	Lug'at boyligi yetarli, mavzuga mos so'z va iboralarni to'g'ri qo'llaydi.	Lug'at yetarli, lekin ba'zi takrorlar yoki noaniq so'zlar bor.	Lug'at cheklangan, fikrni ifodalashda so'z tanlash qiyn kechadi.	Juda kam so'zlardan foydalanadi, fikrni yetkazishda katta qiyninchilik bor.
4. Grammatik va fonetik aniqlik	Grammatik xatolar kam, talaffuzi tushunarli, nutq ravon.	Ayrim grammatik/talaffuz xatolari bor, lekin umumiy ma'no tushunarli.	Ayrim grammatik/talaffuz xatolari bor, lekin umumiy ma'no tushunarli.	Xatolar juda ko'p, nutqni tushunish qiyn.
5. Vaziyatga moslik va kommunikativ strategiya	Nutq vaziyatiga mos uslub tanlaydi, muammo bo'lsa izohlash, qayta so'rash, aniqlashtirish kabi strategiyalardan foydalanadi.	Vaziyatga asosan mos gapiradi, lekin strategiyalardan kam foydalanadi.	Vaziyatga moslashishda qiynaladi, izohlash yoki aniqlashtirish kam.	Vaziyatga mos gapira olmaydi, kommunikativ strategiyalardan foydalanmaydi.

Mazkur rubrikada til vositalaridan foydalanish, grammatik va fonetik aniqlik hamda vaziyatga moslik mezonlari iqtisodiyot talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Til vositalaridan foydalanish mezonlari talabaniq iqtisodiy mavzuga oid leksik birliklar, terminlar va iboralarni amaliy nutqda qo'llay olish darajasini ko'rsatadi. Grammatik va fonetik aniqlik mezonlari esa talabaniq nutqi grammatik jihatdan to'g'ri, talaffuzi tushunarli va muloqot uchun yetarli darajada ravon ekanligini baholashga xizmat qiladi. Vaziyatga moslik va kommunikativ strategiya mezonlari talabaniq kasbiy muloqot sharoitida o'z fikrini mos uslubda ifodalashi, tushunmovchilik yuzaga kelganda aniqlashtirish, qayta so'rash yoki izohlash kabi strategiyalardan foydalana olishini belgilaydi.

Ushbu mezonlar iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining ingliz tilidan real kasbiy vaziyatlarda foydalanish imkoniyatini aniqlashga yordam beradi. Xususan, *business dialogue*, *economic presentation*, *financial report discussion*, *market analysis* va *negotiation* kabi topshiriqlar orqali talabalarning leksik, grammatik, fonetik hamda strategik kompetensiyalari kompleks baholanishi mumkin.

MUHOKAMA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholashda mezonlarga asoslangan baholash tizimidan foydalanish muhim metodik ahamiyatga ega. Chunki kommunikativ kompetensiya faqat grammatik bilim yoki lug'at boyligi bilan cheklanmaydi, balki talabaniq real muloqot sharoitida ingliz tilidan maqsadli, aniq va samarali foydalana olishini ham qamrab oladi. Shu sababli baholash jarayonida nutq mazmuni, muloqotga kirishish, til vositalaridan foydalanish, grammatik va fonetik aniqlik hamda vaziyatga mos kommunikativ strategiyalar asosiy mezonlar sifatida qaralishi lozim.

Taklif etilgan baholash mezonlari iqtisodiyot talabalarining kasbiy ehtiyojlariga mos keladi. Masalan, nutq mazmuni va fikrni ifodalash mezonlari talabaniq iqtisodiy mavzu yuzasidan o'z fikrini aniq, izchil va asosli bayon eta olishini aniqlashga xizmat qiladi. Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi ingliz tilida

nafaqat oddiy suhbat olib borishi, balki iqtisodiy jarayonni tushuntirishi, muammoni izohlashi, dalil keltirishi va xulosa chiqarishi kerak. Shuning uchun mazkur mezon talabani kasbiy mazmunga ega nutqni shakllantira olish darajasini ko'rsatadi.

Muloqotga kirishish va interaktivlik mezoni esa talabani suhbat jarayonida faol ishtirok etishini baholashga qaratiladi. Kommunikativ kompetensiya real muloqotda namoyon bo'lganligi sababli talabani savol berishi, javobni kengaytirishi, suhbatdosh fikriga munosabat bildirishi va muloqotni davom ettira olishi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ayniqsa, *business dialogue, negotiation, presentation discussion* kabi topshiriqlar orqali iqtisodiyot talabalarining interaktiv nutq ko'nikmalarini aniqlash mumkin.

Til vositalaridan foydalanish mezoni talabani mavzuga mos so'z va iboralarni, ayniqsa, iqtisodiy terminlarni to'g'ri qo'llay olish darajasini belgilaydi. Iqtisodiyot sohasi maxsus terminologiyaga boy bo'lganligi sababli talabalar *market, demand, supply, investment, inflation, income, expenditure, profit* kabi leksik birliklardan o'rinli foydalanishi zarur. Bu mezon ingliz tilini umumiy fan sifatida emas, balki kasbiy muloqot vositasi sifatida baholash imkonini beradi.

Grammatik va fonetik aniqlik mezoni ham kommunikativ kompetensiyani baholashda muhim o'rin tutadi. Talabani gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishi, talaffuzining tushunarli bo'lishi va nutq ravonligi muloqot samaradorligiga ta'sir qiladi. Biroq kommunikativ yondashuvda grammatik xatolar faqat shakliy nuqson sifatida emas, balki ular umumiy mazmuni tushunishga qanchalik ta'sir qilishi nuqtayi nazaridan baholanadi. Agar talabani nutqida ayrim xatolar mavjud bo'lsa-da, asosiy fikr tushunarli bo'lsa, kommunikativ maqsad ma'lum darajada amalga oshgan hisoblanadi.

Vaziyatga moslik va kommunikativ strategiya mezoni talabani muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf eta olish darajasini ko'rsatadi. Talaba tushunmagan fikrini qayta so'rashi, aniqlashtirishi, fikrini boshqa so'zlar bilan izohlashi yoki suhbatni davom ettirish uchun mos iboralardan foydalanishi zarur. Bu ko'nikma ayniqsa chet tilida kasbiy muloqot olib borishda muhimdir, chunki real vaziyatlarda talaba har doim ham mukammal til bilimiga ega bo'lmasligi mumkin, ammo mavjud imkoniyatlar orqali muloqotni davom ettira olishi kerak.

Umuman olganda, mazkur baholash mezonlari iqtisodiyot talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini kompleks aniqlashga xizmat qiladi. Ular talabani nafaqat til bilimlarini, balki ingliz tilidan kasbiy vaziyatlarda amaliy foydalana olish darajasini ham baholash imkonini beradi. Shuningdek, baholash jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ham samarali bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt vositalari yozma nutqdagi xatolarni aniqlash, talaffuz va ravonlik bo'yicha fikr-mulohaza berish hamda talabaga individual tavsiyalar taqdim etishda yordam beradi. Biroq yakuniy baholashda o'qituvchining metodik xulosasi asosiy o'rinda turishi lozim.

XULOSA

Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholash aniq mezonlar va ko'rsatkichlar asosida tashkil etilishi zarur. Chunki kommunikativ kompetensiya faqat til qoidalarini bilish bilan emas, balki ingliz tilidan real kasbiy vaziyatlarda foydalana olish, iqtisodiy mavzularda fikr bildirish, muloqotga kirishish, kasbiy terminlardan foydalanish va nutqiy qiyinchiliklarni bartaraf etish ko'nikmalari bilan belgilanadi.

Maqolada taklif etilgan nutq mazmuni va fikrni ifodalash, muloqotga kirishish va interaktivlik, til vositalaridan foydalanish, grammatik va fonetik aniqlik hamda vaziyatga moslik va kommunikativ strategiya mezonlari iqtisodiyot talabalarini ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini har tomonlama baholash imkonini beradi. Ushbu mezonlar talabani lingvistik, diskursiv, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarini yagona tizim asosida aniqlashga xizmat qiladi.

Baholash jarayonida iqtisodiyot sohasi bilan bog'liq real kommunikativ topshiriqlardan foydalanish muhim hisoblanadi. *Business dialogue, economic presentation, market analysis, negotiation, financial report discussion* kabi topshiriqlar talabani ingliz tilidan kasbiy muloqot vositasi sifatida foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi. Bu esa baholash jarayonini faqat nazariy bilimlarni tekshirishdan amaliy kommunikativ faoliyatni baholashga yo'naltiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish baholash jarayonining samaradorligini oshirishi mumkin. Bunday vositalar talabaga tezkor fikr-mulohaza berish, yozma va og'zaki nutqdagi ayrim kamchiliklarni aniqlash hamda individual o'quv ehtiyojlarini belgilashda yordam beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt o'qituvchi bahosini to'liq almashtirmaydi, balki uni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyot talabalarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini

baholashda mezonlarga asoslangan tizimdan foydalanish talabalarning kasbiy kommunikativ tayyorgarligini aniqlash, o'quv jarayonini takomillashtirish va ingliz tilini mutaxassislik ehtiyojlari bilan bog'liq holda o'qitish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bachman L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – Pp. 81–107.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – Pp. 1–47.
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – Pp. 30–135.
4. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – Pp. 4–5.
5. Hyland K. Second Language Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – Pp. 18–25.
6. Hymes D.H. On Communicative Competence // In: Pride J.B., Holmes J. (Eds.). Sociolinguistics: Selected Readings. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – Pp. 269–293.